



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MEDIA VOSITALARINING QO'LLANILISHI VA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING METODIK TAYYORGARLIGIDAGI ROLI

Ochilova Gavhar Hamid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbita nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

E-mail: gavharochilova99@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida media vositalarining ahamiyati, ularning boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishdagi roli tahqiq qilinadi. Media resurslarining turlari, pedagogik strategiyalar bilan integratsiyalash usullari, shuningdek, ularni o'quv jarayoniga samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: media vositalari, boshlang'ich ta'lim, metodik tayyorgarlik, innovatsion texnologiyalar.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishni talab qilmoqda [1]. Raqamli axborot makonining kengayishi o'qituvchidan nafaqat pedagogik, balki media savodxonlik va media vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishni ham taqozo etadi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda.

Media vositalari yordamida o'quv jarayonini tashkil etish talabalarda darsni kreativ rejalashtirish, ta'limiy kontent yaratish, o'quvchilar e'tiborini boshqarish, mustaqil fikrlashga undash hamda axborotni tahlil qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi [2]. Shu bois, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning metodik tayyorgarligiga media vositalarini integratsiya qilish bugungi kunning asosiy masalalaridan biri sanaladi.

Media resurslaridan ta'lim jarayonida foydalanish pedagogik jarayonning mazmunini kengaytirish, uni zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish hamda talabalarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Media vositalari – bu videodarslar, elektron darsliklar, animatsiyalar, infografikalar, interaktiv taqdimotlar, podkastlar, veb-resurslar, virtual o'quv platformalari va mobil ilovalar kabi ta'limiy kommunikatsiya vositalaridir [3]. Ular o'quv axborotining vizual, eshitish va kinestetik qabul qilishga yo'naltirilgan multimodal shaklda yetkazilishini ta'minlaydi va shu



orqali ta'lim jarayonida interaktivlik darajasini oshiradi.

Media vositalarining bir qancha pedagogik afzalliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

Birinchidan, media resurslar interaktiv muhit yaratish orqali talabalarning darsdagi faolligini ta'minlaydi. An'anaviy ma'ruza shaklidagi darslardan farqli o'laroq, media vositalari orqali tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil izlaydi, tahlil qiladi, baholaydi va ijodiy qayta ishlaydi [4]. Bu jarayon konstruktivistik ta'lim yondashuvi tamoyillariga xos bo'lib, talabani bilimning quyi iste'molchisi emas, balki yuqori yaratuvchisi sifatida shakllantiradi.

Ikkinchidan, media vositalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, dars jarayonida media resurslardan foydalangan holda talabalar ta'limiy kontentni yaratish, o'quv materiallarini vizualizatsiya qilish, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos media mahsulotlar ishlab chiqish hamda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu ularning kasbiy-metodik, axborot texnologiyalaridan foydalanish, mediasavodxonlik, kreativ pedagogik yondashuv, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, media resurslar ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida media vositalaridan foydalanish o'quvchining mavzu bo'yicha bilimlarni eslab qolish darajasini 30–60% gacha oshiradi, dars samaradorligi va motivatsiyasini kuchaytiradi [5]. Qolaversa, animatsion ko'rgazmalar, real hayot bilan bog'langan media misollar darsning mazmunini jonlantirib, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuqori natija ko'rsatadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, texnologiya integratsiyasining samarali modellari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi pedagogik dizayn, texnologik infratuzilma va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini uyg'unlashtiradi [6]. O'zbekiston sharoitida esa media vositalaridan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda, biroq ularni tizimli tarzda joriy etish va baholash mexanizmlari hali yetarlicha rivojlanmagan.

Media vositalaridan foydalanishda ko'zga ko'rinarli darajada qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqilmoqda.

Media vositalarini ta'lim jarayonida qo'llash bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bosqichida bir qancha qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu to'siqlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish metodik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida bir nechta



qiyinchiliklar sanab o'tiladi:

1. O'quv muassasalarida kompyuterlar, elektron doskalar, sifatli internet tarmog'i va proyektorlar yetarli emas. Bu muammo, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim muassasalarida sezilarli darajada kuzatiladi.

2. O'qituvchilarning texnologik tayyorgarligining pastligi. An'anaviy usullarga o'rganishgan o'qituvchilar va bo'lajak mutaxassislar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duchkelishi. Ular texnik vositalardan foydalanishni, hamda ularni pedagogik maqsadlarda qanday qo'llashni ham bilishlari shart.

3. Metodik qo'llanmalar va standartlarning yetishmasligi. Media vositalaridan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar, namunaviy dasturlar va o'quv rejalari hamon yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu o'qituvchilarga o'z faoliyatida to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatmaydi.

4. Bir qanchga psixologik to'siqlar ham mavjud bo'lib, ular yangi texnologiyalardan qo'rquq, o'zgarishlarga nisbatan ehtiyotkorlik va "eski usul"ga ishonch ko'pincha pedagoglarni innovatsiyalardan chetda qolishiga sabab bo'ladi.

5. Vaqt va resurslar cheklovligi ham yo'q emas. Multimedia materiallarni tayyorlash odatiy dars rejalashtirishga nisbatan ko'proq vaqt va kuch talab qiladi. Bundan tashqari, resurslarga moliyaviy imkoniyatlar cheklovi ham muhim muammo hisoblanadi.

Yuqoridagi kamchilik va qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari va takliflar ishlab chiqilmoqda. Jumladan:

1. Bosqichma-bosqich texnik jihozlash. Davlat dasturlari doirasida ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika bilan ta'minlash, shuningdek, mahalliy hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini chuqurlashtirish. Oliy ta'limda "Media ta'limi", "Raqamli pedagogika", "Ta'limda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" kabi majburiy fanlarni joriy etish va ularni amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish. Talabalarga o'zlarinig media mahsulotlarini yaratishga imkon berish.

3. Metodik qo'llanmalar yaratish. Milliy darajada ochiq ta'lim resurslari (OER) platformasi, video darsliklar, elektron kutubxona va metodik ko'rsatmalar to'plamini yaratish. Bu resurslar bo'lajak va amaldagi o'qituvchilar uchun doimiy yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish. Mentorlik, murabbiylik, master-klasslar va muvaffaqiyatli amaliyotlarni almashish sessiyalarini tashkil etish orqali yangi texnologiyalarga bo'lgan qo'rquq va ehtiyotkorlikni bartaraf etish.

5. Rag'batlantirish tizimini takomillashtirish. Media vositalaridan



samarali foydalanayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirish, grantlar va tanlovlar o'tkazish, ularning ish haqiga ijobiy ta'sir ko'rsatish. Bu innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishni oshiradi va vaqt sarfini qoplaydi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, texnologik innovatsiyalarning muvaffaqiyati nafaqat texnika bilan ta'minlashdan, balki unga hamroh bo'ladigan keng qamrovli kadrlar tayyorlash, metodik yordam va tizimli qo'llab-quvvatlash siyosatidan kelib chiqadi. O'zbekiston sharoitida yuqoridagi chora-tadbirlarni kompleks amalga oshirish orqali media vositalaridan foydalanishdagi to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirish va ularni ta'lim jarayoniga yanada samarali integratsiya qilish mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, media vositalaridan samarali foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Vizual, audio, video va interaktiv resurslar darslarni qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali media vositalaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova G.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 215 b.
2. Karimova M.A., Yusupova L.Sh. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 189 b.
3. Hasanov O.R. Raqamli ta'lim muhitida media savodxonlikning o'rni // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2022. – № 4. – B. 45-52.
4. Nurullayeva Sh.M. Boshlang'ich sinf darslarida vizuallashtirish vositalari va interaktiv metodlar. – Toshkent: Navro'z, 2021. – 167 b.
6. Petrov A.V., Ivanova K.L. Effectiveness of Multimedia in Educational Process: Meta-analysis // Journal of Educational Technology Research. – 2020. – Vol. 34. – No. 2. – P. 120-135.
7. Johnson L., Adams S., Cummins M. Technology Integration in Teaching: A Framework for Effective Practice. – London: Springer, 2019. – 278 p.